te'dodli ijodkorligini ko'rsatadi. Shu bilan birgalikda, u Xorazm jadidchilik maktabining faol a'zolaridan biri hamdir. Shoir jadidchilik g'oyalarining yoyilishida, yangi maktablar ochilishida jonbozlik ko'rsatgan

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

(1). Tabibiy. Majmuayi muxammasoti ash-shuaroyi Feruzshohiy. Qo'lyozma, O'zRFA SHI, №1134; Laffasiy Hasanmurod. Xiva shoir va adabiyotchilarining tarjimayi hollari. Tazkira. O'zRFA SHI qo'lyozmalar fondi №12561. Qayyumiy P.Tazkirayi Qayyumiy. III jildlik. III jild, Toshkent, O'zRFA Qo'lyozmalar instituti, 1998, 599–600-betlar; Bobojon Farroh Xodim. Xorazm navozandalari. Toshkent, G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1994, 136–140-betlar.

(2). Pirnazarov M. Mutrib Xonaxarobiyning ijodiy yo'li. Filol. fan…nomz…diss., Samarqand, 1973.

(3). Madrimova S. Mutrib Xonaxarobiy va uning adabiy merosi. Filol. fan… falsafa d-ri (PhD) diss., Toshkent, 2021.

(4). Allaberganova A. Mutrib Xonaxarobiy she'riyati lingvopoetikasi. Filol. fan… falsafa d-ri (PhD) diss., Urganch, 2024.

(5). Sharafiddinov O. Yillar va yo 'llar. Adabiyotimizning yarim asri. Toshkent, Badiiy adabiyot, 1967, 172-bet; Mallayev N. Klassik adabiyot boyliklarini chuqur o'rganaylik va keng ommalashtiraylik. "O'qituvchi", 1957, 12-mart soni; Pirnazarov M. Obodlig' ayyomlar. "Guliston", 1957, 7-son, 28-bet.

(6). Mutrib Xonaxarobiy. "Xorazm xabarlari" gazetasi, 1921-yil 26-sentabr, 24-son.

(7). "Xorazm xabarlari" gazetasi, 1921-yil 23-sentabrdagi soni

(8). Mutrib Xonaxarobiy. "Xorazm xabarlari" gazetasi, 1921-yil 10-sentabr, 19-son.

(9). Mutrib Xonaxarobiy. "Xorazm xabarlari" gazetasi, 1921-yil 26-sentabr, 24-son.

(10). Yuqoridagi manba.

(11). Odob-axloq kitobi. Abdurauf Fitrat. Najon yo'li. Toshkent, "Yoshlar" nashriyoti, 2023, 27-bet.

(12). "Xorazm xabarlari" gazetasi, 1921-yil 4-noyabr soni.

Abdullayeva Feruza Baxodir qizi (Toshkent davlat Sharqshunoslik universiteti Koreyashunoslik oliy maktabi erkin tadqiqotchisi; e-mail: feruza.abdullayeva.1997@mail.ru)

XX ASR BIRINCHI YARMI KOREYS ROMAN JANRI BADIIYATI

Annotatsiya. *Ma'lumki, roman adabiyotda katta hajmli asardir. Janr ko'lami va miqyosi jihatidan o'z ichiga ko'plab masalalar, turfa taqdirlar, davrdagi ko'plab muammolarni qamrab olish xususiyatiga ega. Mazkur maqolada koreys adabiyotida roman janrining paydo bo'lishi hamda taraqqiyot jarayoni ko'rib chiqiladi va tahlil qilinadi.*

Kalit so'zlar: *pxesol, sosol, tush, motiv, realizm, trilogiya, urush, front, ziddiyat, fojia.*

Абдуллаева Феруза Баходировна (Высшая школа корееведения, независимый исследователь; e-mail: feruza.abdullayeva.1997@mail.ru)

ПОЭТИКА ЖАНРА РОМАНА ПЕРВОЙ ПОЛОВИНЫ XX ВЕКА

Аннотация. *Роман считается большим по объему повествовательным произведением. Благодаря своему жанру и масштабу, он затрагивает множество сюжетных линий, разнообразных персонажей с их сложными судьбами и актуальными для своего времени проблемами. В данной статье на примере корейских романов рассматривается возникновение и эволюция жанра романа в корейской литературе.*

Ключевые слова*: пхэсоль, сосоль, сон, мотив, реализм, трилогия, война, фронт, конфликт, трагедия.*

Abdullayeva Feruza (Freelance researcher at the Higher School of Korean Studies, Tashkent State University of Oriental Studies; e-mail: feruza.abdullayeva.1997@mail.ru)

FIRST HALF OF XX CENTURY KOREAN NOVEL GENRE LITERATURE

Annotation. *It is well known that the novel is a literary work of significant length. Due to its broad scope and scale, it has the capacity to encompass numerous issues, diverse destinies, and various challenges of its time. This article examines and analyzes the emergence and development of the novel genre in Korean literature, based on novels written in the Korean language.*

Keywords*: phaesol, sosol, dream, motive, realism, trilogy, war, front, conflict, tragedy.*

Kirish (Introduction). Adabiyotshunoslik fanida roman janrining paydo bo'lishi haqida turli qarashlar mavjud. Jumladan, arab adabiyotshunos olimasi M.Akbarova: "Roman yangi davr adabiyotida epik janrning katta ko'rinishi hisoblanadi" [1;40-b.], deb fikr bildirgan bo'lsa, jadid harakatining faol targ'ibotchisi Abdurauf Fitrat: "Hayotning belgili bir davrini keng suratda tasvir etib yozilg'on asarga "ro'mon" deyiladir...Ro'monlarda asarning qahramoni, yo qahramonlari qaysi zamonda, qaysi muhitda, qaysi jamiyatda

yashag‘an bo‘lsalar, shularning urf-odat, qonun, tilak, havas, orzu, kamchilik, axloq, e’tiqodlari ingichka, ham keng suratda tasvir etiladir.

Tomosha asarlarda ko‘rganimiz “to‘lalik, birlik, to‘g‘rilik” kabi shartlarning ro‘mon bilan hikoyada ham bo‘lishlari lozimdir. Rivoya asarlari orasida eng muhim o‘run ro‘monlarga berilgandir, biroq adabiyotning eng og‘ir, eng qiyin sho‘basi ham ro‘mon yozmoqdir” [7,8;20–21-b; 11–88.], deb ta’rif beradi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Roman janri har bir millat adabiyotining takomil darajasini ko‘rsatadi. Bugungi kunda yetakchi janrga aylangan, millat adabiyotining qiyofasini o‘zida aks ettirgan roman koreys nasrida XVII–XVIII asrda vujudga keldi. Mif-asotirlardan boshlangan, pxesol adabiyotida taraqqiyot yo‘liga kirgan, o‘rta asr qissalarida takomillashgan nasriy janrlar ichida roman zamonlar osha barcha adabiy oqimlarda namoyon bo‘ldi.

Koreys adabiyotshunosligida sotsol turkumiga kiruvchi epik asarlar kichik, o‘rta va katta kabi turlarga ajratiladi. Insonni turli rakurslarda aks ettirishda katta hajmli asarlar – romanlarning ahamiyatini ta’kidlash lozim. Koreys romanlarida ko‘tarilgan muammolar bugungi kunda ham zamon bilan hamnafas, o‘z dolzarbligini yo‘qotmagan. Zero, “...bu janrning imkoniyatlari cheksiz, shunga yarasha romannavis bo‘lish mas’uliyati ham benihoya katta. Romanning ana shunday beqiyos imkoniyatlaridan foydalana olish layoqatiga ega bo‘lgan, uning zahmatlariga dosh bera oladigan, roman yukini yelkasida ko‘tarishga qodir shijoatli, chin iste’dod sohibigina bu janrda muvaffaqiyat qozona oladi. Shuning uchun bo‘lsa kerak, mana, ikki asrdan oshdiki, hech kim, hatto, manamen degan nazariyachi olimlar ham bu janrning hamma birdek tan oladigan ta’rifini bera olgani yo‘q, berolmaydi ham. Qarangki, keyingi ikki yuz yil davomida jahon adabiyoti, adabiy tanqidchiligidagi eng qizg‘in bahs-munozaralar ham ayni shu janr, uning namunalari, ijodkorlari tevaragida kechgan” [4;32-b.].

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Mumtoz davr koreys nasrida pxesol adabiyoti hamda Kim Si Sipning yangi tasvir vositalari bilan boyitilgan hikoyalari insonni badiiy aks ettirish jihatidan davr talabi ehtiyojini qondirmadi. Shu sababli ijtimoiy masalalarni yoritish, davr va zamon munosabatlarini aks ettirish uchun katta hajmli asarlar – romanlarga ehtiyoj tug‘ildi. Dastlab, yoritilgan romanlar qo‘lyozma tarzida yoki bibliografik ishlarda uchraydi. Shuningdek, ayrim manbalarda qayd etilishicha, qo‘lyozma tarzidagi romanlarni xonadon ichkarisida yashaydigan ayollar qayta ko‘chirishgan. Bunga ayol dastxati bilan yozilgan “Ikki bilakuzukning g‘aroyib uchrashuvi” romani misol bo‘la oladi [5;127-b.].

Koreys tiliga moslashtirilgan Xitoy adabiy tili venyanda yaratilgan ilk koreys romanlarining mualliflari hamda yaratilish sanasi noma’lum. Shu sababli ularning aynan qachon yozilganini aniqlash mushkul. Ammo, saroy amaldori, siyosiy arbob, Koreya xaritasini tuzishda faol ishtirok etgan adib Kim Manjun qalamiga mansub romanlarning yaratilish sanasi XVII asrning oxiri–XVIII asrning birinchi o‘nyilligiga to‘g‘ri keladi. Shu sababli yozuvchi qalamiga mansub romanlar koreys nasrida yaratilgan ilk romanlar tarzida e’tirof etiladi.

Kim Manjunning ilk romanlari koreys xalqi ruhiyatini o‘zida ifoda etgan, mazkur davr xalq hayotini keng ko‘lamda qamrab olgan asar kabi talqin qilindi: “XVII–XVIII asr koreys adabiyotining eng muhim badiiy yutuqlaridan biri yangi nasriy janrning, aniqrog‘i, nafaqat insonni badiiy aks ettirishga yangicha yondashuv bilan farq qiluvchi, balki ijtimoiy fosh qiluvchi tendensiyalari bilan alohida ajralib turuvchi roman janrining yuzaga kelishi hisoblanadi” [6; 152-b.].

Muallif tomonidan uch roman yozilgan bo‘lib, bu romanlarni shartli ravishda quyidagi tarzda guruhlashtirish mumkin: 1. “Sa xonimning janub bo‘ylab sargardonliklari” – tarixiy roman. 2. “To‘qqiz kishining bulutli tushi” – ma’rifiy roman. 3. “Yun xonim haqida” – avtobiografik roman.

O‘zbek adabiyotshunos olimi M.Qo‘shjonovning “Tarixiylik, davr ruhi hamma realistik asarlarda ham bo‘lishi kerak. Ammo, shunday asarlar borki, ularda realizmning bu xususiyati davr uchun tipik bo‘lgan tarixiy shaxslar xarakterini yaratish orqali ifodalanadi. Bunday asarlarda davr ruhi, eng avvalo, tarixiy shaxslar xarakteriga bog‘liq bo‘lib qoladi” [9; 39-b.], degan fikrlari Kim Manjunning “Sa xonimning janub bo‘ylab sargardonliklar” romani mazmun-mohiyatiga to‘la mos keladi. Muallif o‘zi yashagan davr saroy hayoti hamda qirol faoliyatini yoritish orqali oila va jamiyat o‘rtasida parallel o‘tkazadi: “...asar podshohning oila boshlig‘i sifatidagi roli haqidagi konfutsiychilik tasavvuri nuqtayi nazaridan yozilgan. Bunda podshohga mavjud konfutsiychilik me’yorlari va qoidalariga rioya etish, shu tariqa, mamlakatda tinchlik va barqarolikni ta’minlash vazifasi yuklanadi. Asarda oila va davlat ishlari bir-biri bilan bog‘langan, chunki davlat – katta oila, agar oilada tartib bo‘lmasa, bu o‘z-o‘zidan davlatda ham tartibsizliklarga olib keladi, degan g‘oya yetakchilik qiladi” [6;155-b.]. Bu yerda podshoh obrazi Li sulolasi davrida davlatni boshqargan qirol Sukjonning prototipidir.

Bugungi kunda Seul universiteti kutubxonasida asl nusxasi saqlanib qolgan "To'qqiz kishining bulutli tushi" romani adib amal qilgan hayotiy qoidalarga tamoman zid keladi. Aniq – matematika, astronomiya, geografiya kabi fanlar bilan shug'ullangan, iqtisod, ta'lim, maorif masalalari tashvishi bilan yashagan, Xitoy madaniyati va tiliga qarshi kurashgan, ona tilining otashin yalovbardori, harbiy ishlar qo'mondoni lavozimida ishlagan yozuvchi o'zi a'zo bo'lgan firqa hokimiyatdan chetlashtirilgandan so'ng surgunga jo'natildi. Surgundan qaytib kelmagan adibning avvalgi qarashlariga zid mazmunda yozilgan roman barchani hayratda qoldirdi. Zero, "Kim Manjun insonning vazifasi va uning ijtimoiy faolligi mazmuni haqidagi savolga javobni buddizmda topdi" [6;75-b.].

Romanda tasvirlayotgan voqea-hodisalar tushda kechadi, asar kompozitsiyasidagi tush motivi esa yozuvchining jamiyatga bo'lgan munosabatini, falsafiy qarashlarini aks ettiradi. Insonning cheksiz istak mayllarini tush motivi orqali badiiylashtirgan adib, saroydagi fitnalar, surgun, atrofidagi odamlarning o'limga mahkum etilishi, nafsni qondirish yo'llarini boshqa bir olamda ko'rsatadi.

"Yun xonim haqida" roman yozuvchida adabiyotga mehr uyg'otgan onasiga bag'ishlangan. Adibning otasi vatanini manjur bosqinidan ozod qilish uchun kurashda halok bo'lgan. Onasi Yun xonim to'ng'ich va kichik o'g'liga o'zi tarbiya bergan. Romanda adib onasining ota o'limidan so'ng qimmatbaho kiyimlar va sovg'alardan voz kechib, farzandlariga ilm berish uchun bor-budini sarflaganini alohida e'tirof etadi. Shu bilan birga, adib farzandlarining ilm yo'lida erishgan har bir muvaffaqiyati uchun ziyofatlar uyushtirgan onaning matonati oldida o'zining chuqur minnatdorchiligini bildiradi. Farzandining siyosiy jarayonlardan voz kechib, ilm yo'liga kirishini istagan ona o'giti – "To'qqiz kishining bulutli tushi" romanida ro'yobga chiqadi.

Kim Manjundan so'ng mumtoz davr koreys adabiyotshunosligida roman janrida yaratilgan asarlar kuzatilmaydi. Deyarli uch asrlik tanaffusdan so'ng kitobxonlar ommasiga XX asrga kelib g'arb, yapon va rus adabiyoti ta'sirida yozilgan yangi tipdagi romanlar taqdim etildi. Bu davrga kelib mamlakatda yapon mustamlakachilariga qarshi partizanlar harakati ketayotgan edi. Partizanlar orasida inqilobiy qo'shiqlar, kichik komediyalar, satirik pesalar mashhur bo'ldi. Kuchli ta'qiqlarga qaramay, chuqurlashib borayotgan kurashlarga homahang tarzda adabiyotda inqilobiy mavzulardagi hikoya va qissalar salmog'i oshdi. Ijtimoiy hayotdagi o'zgarishlar ijod ahli oldiga yangi mavzular bilan birga faol kurashchilarning umumlashma obrazini yaratish vazifasini qo'ydi. Zero, kichik hikoya shakli bularning barchasini o'ziga sig'dira olmasdi [10; 91-b.].

XX asr boshida mamlakatda sodir bo'lgan qator ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-ma'rifiy o'zgarishlar koreys adabiyotida adabiy janrlarning shakl va mazmun jihatdan o'zgarishiga turtki berdi. Koreys nasriy janrida, avval, hikoya va qissa, so'ng, romanlar mavzui, unda ko'tarilgan masalalar birmuncha erkinlashdi, ona tiliga bo'lgan e'tibor kuchaydi. Mamlakatning tarixiy taqdiri va ma'naviy-ma'rifiy sohalarida yuzaga kelgan qator muammolar yangi tipdagi nasriy asarlar uchun manba vazifasini o'tadi.

Bu davrga kelib o'z haq-huquqi uchun kurashayotgan xalq, ishchi va dehqonlarning mazlum hayotini o'zida aks ettirgan Li Gienning "Vatan" (1934), "Bahor" (1940), Kan Kyon Ening "Bashariyat muammosi" (1934), Xon Myon Xining "Im Kok Chon afsonasi" (1939) kabi tarixiy romanlari chop etildi.

Li Gienning "Vatan" romani 1933–1934-yillar davomida "Koreys qaydlari" gazetasida bobma-bob chop ettirildi. Romanda qishloqning qashshoq ijarachi dehqoni hamda olis shahar zavodida ishlaydigan ishchilarning hayoti parallel tarzda chiziladi. Muallif qashshoqlik, yo'qsillik hamda boylik o'rtasidagi kurash oqibatida oddiy insonlar ongining o'sishini tasvirlash asnosida qulchilikka qarshi kurashning vujudga kelganini ko'rsatadi. Roman janubiy koreyalik tanqidchilar tomonidan realizm yo'nalishida yozilgan yapon istilosi davrining eng sara asarlari qatoriga kiritildi [11;412-b.]. Yozuvchi ijodini ilmiy tahlilga tortgan rus olimasi V.V.Ivanova ham mazkur romanni adib ijodida "ahamiyatga molik roman" [2;94-b.], deb e'tirof etadi.

Kan Kyon E "Bashariyat muammosi" romanida mustamlaka davrida ishchi va dehqonlarning umumlashma obrazini chizadi. Mustamlaka sharoitida mazlum, itoatli xalqning rohat ko'rmasa-da, vaziyatga moslashib tinimsiz mehnat qilishida – koreys xalqi ruhiyatini o'zida aks ettirgan azaliy xan kategoriyasi ko'zga tashlanadi. Yozuvchining bu asarini o'qigan adiba Pak Vanso o'zining "Shuncha shinganing gulini kim yegan?" romanida o'z mulohazalarini shunday ifodalaydi: "Kan Kyon Ening romani ruhiy jihatdan chuqur ta'sir ko'rsatgan bo'lsa-da, ishtaham qochib, bir necha kun hech narsa yeya olmadim. Romanda bolaning boshiga yiringli yara toshgan sabab dori vositasi sifatida sichqon terisini shilib, xuddi telpakdek kiydirib qo'yishadi. Oxir-oqibat bolaning boshida butunlay lichinkalar g'ujg'on o'ynaydigan bo'lib qoladi. Garchi men ham et kuysa darrov tvenjang (soyadan tayyorlangan pasta) surkaydigan muhitda o'sgan bo'lsam-da, bu yoqimsiz va qo'rqinchli hikoyadan ko'nglim ozidi" [14;201-b.].

Mashhur yozuvchi Yom Sansop murakkab va ziddiyatlarga to‘la zamon – yapon anneksiyasi davrida yashab ijod qildi. Avval hikoya janrida ijod qilgan adibning “Uch avlod” romani uning eng salmoqli adabiy yutuqlaridan biri sifatida tan olindi. Roman trilogiyadan iborat bo‘lib, uning har bir qismi o‘z nomiga ega: “Faqat senga og‘ir deb o‘ylaysanmi?” “Birinchi mojaro”, “Ovoza”.

Romanning har uch qismi yagona syujet chizig‘iga bo‘ysundirilgan, ammo, asar kompozitsiyasida bayon etiluvchi voqealar o‘rtasida vaqt jihatidan izchillik mavjud emas. Yom Sansopning aksariyat asarlari kabi, bu roman voqealari ham poytaxt shahar – Seulda kechadi. Janubiy koreyalik adabiyotshunos Kim Chong Yun shu nuqtayi nazardan Yom Sansopni rus adibi Dostoyevskiy bilan qiyoslaydi: “Dostoyevskiy o‘zi tug‘ilib o‘sgan shahar – Peterburgni o‘z asarlarining manzarasiga aylantirganidek, Sansop ham o‘zi tug‘ilgan va yashagan Seulni o‘zining deyarli barcha asarlarining manzarasiga aylantirdi” [15;24-b.].

Poytaxtning o‘rta sinfiga mansub muallif mamlakat tarixini, azaliy qadriyatlarini yaxshi bilgan, seulliklarga xos shevaning o‘ziga xos jihatlaridan xabardor bo‘lgan, o‘z navbatida, bundan o‘z asarlarida unumli foydalangan. Yozuvchi oilaning uch avlod vakili misolida 20-yillar koreys jamiyati tasvirini mohirona chizadi. Davr nafasi, unga xos xususiyatlar roman qahramonlari xatti-harakatlari va voqealar ortidagi tarixiy manzara tasvirida, shuningdek, romanning bosh mojarosida bo‘rtib namoyon bo‘ladi.

Zamonaviy adabiyot rivojiga ulkan hissa qo‘shgan yozuvchi I Te Junning “Dehqon yerlari” romani dehqonlar hayoti bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, unda Shimoliy Choson davlatida amalga oshirilgan yer islohoti masalasiga muallifning munosabati aks ettirilgan. Roman syujetini harakatga keltiruvchi, dehqon obrazini turli rakurslarda ochib beruvchi, davr haqida fikr uyg‘otuvchi ramz bu – yer.

Roman 17 bobdan iborat bo‘lib, 1–12-boblar yapon mustamlakasi davridagi yer, ijarachi dehqon, yer egalarining dehqonlarga o‘tkazgan tazyiqi, dehqon zahmatlari masalasiga qaratilgan. Romanning qolgan 13–17-boblarida mamlakatning ozodlikka erishgan yillari, ijtimoiy maqomi o‘zgargan dehqon, yer islohoti muammolari yoritilgan. Yozuvchi bir umr yollanma ishchi bo‘lgan dehqonning haqiqiy yer egasi sifatida o‘z maqomini anglab yetmagani, yer islohoti mazmun-mohiyatini tushunmaganini feodal qoloqlik hamda yapon istibdodi davri bilan uzviy bog‘laydi. Romanning tuguni ham haqiqiy yer egasiga aylangan dehqonning endi faqat qorin to‘ydirish g‘amidan uzoqlashib, yerdan foydalanish muammosiga duch kelishi bilan boshlanadi. Roman tashqaridan boshqarilayotgan ochiq siyosat haqidagi asar sifatida ham yuqori baholandi [16;373-b.].

Muallif romanda sotsialistik mafkura ta’sirida tortib olingan yerlar, mulk, yakka tartibdan umumga o‘tish jarayonida oddiy dehqon duch kelgan muammolar zamiriga yangi tuzumning salbiy jihatlarini berkitadi. Bu yozuvchining jamoaviy tartibda ishlashga o‘tish davriga bergan bahosidir.

1945-yil mamlakat mustaqillikka erishganidan so‘ng turmushning an’anaviy shakllarini tubdan o‘zgartirish, jamiyatni ijtimoiy qayta qurish muammolari butun keskinligi bilan yuzaga chiqdi. Tabiiyki, yozuvchilar oldida bu murakkab jarayonni badiiy aks ettirish muammosi turardi. 1945–1950-yillar oralig‘ida hikoya va qissa janri keng taraqqiy etgan holda, roman janri taraqqiyoti biroz sustlashdi. Bu qisqa davr ichida ijtimoiy taraqqiyot g‘oyalari bilan sug‘orilgan qator asarlar paydo bo‘ldi. 1950-yillarga kelib mamlakatda mafkuraviy kurash keskinlashdi, bu koreys adabiyotiga ham ta’sir o‘tkazdi.

Murakkab tarixiy vaziyat va mafkuraviy bo‘shliq sabab ijodkorning estetik tamoyili, g‘oyaviy qarashlari ham o‘zgardi. 1950–1953-yillarda bo‘lib o‘tgan qondoshlar urushi koreys xalqiga qaqshatqich zarba berdi. Ikki xil mafkura ostida bo‘lingan mamlakat hududida qolib ketgan aka-ukalar, opa-singillar, ota-onalar boshidan og‘ir, judoli kunlar o‘tdi. Tabiiyki, ijod ahli o‘z e’tiborini fuqarolar urushi, uning salbiy oqibatlari masalasiga qaratdi. Xvan Sunvon jang maydonida ijod qilgan sanoqli yozuvchilar qatorida turadi. Adib qalamiga mansub qator asarlar, jumladan, “Qamoqdagi daraxtlar”da inson ruhiy iztirobi, “Tog‘lar”, “Hayot”da esa tirik qolish uchun harakat, “Yomg‘ir”da urush maydonida vahshiylashgan inson qiyofasi aks ettiriladi [12].

Davrning mashhur yozuvchilaridan bo‘lgan Cho Chonne 6 yil uzluksiz va samarali izlanishlar natijasi o‘laroq “bo‘lingan millat” muammosiga bag‘ishlangan “Txebek cho‘qqisi” romanini taqdim qildi. To‘rt qismdan iborat roman o‘zida 1948–1953-yillar mamlakatda sodir bo‘lgan voqealarni mujassam etadi. Romanda bosh va ikkinchi darajali ko‘plab qahramonlar ishtirok etadi, ammo yozuvchi e’tiborini azaliy aka-uka obrazlari o‘ziga tortadi. Romanda tasvirlangan voqea-hodisalar Cho Chonne hayotiga yaqin, ya’ni urush ishtirokchisi sifatida yozuvchi urush voqealarini yorqin bo‘yoqlarda, hayotiy obrazlarda ko‘rsata oldi. Urush maydonida, aniqrog‘i, janub va shimol askarlari hayotini yoshlar, aka Yom Sanchin, uka Yom Sangu dunyoqarashlari orqali tasvirlashda adib mahorati ko‘zga tashlanadi. Aka chap qanot, uka o‘ng qanot vakili sifatida kurashadilar. Aniq qiyofaga ega aka-uka obrazlari o‘z yoshi va saviyasi darajasida harakat qiladilar.

Muallif aka-uka munosabatlarida davr ziddiyati va inson qiyofasini haqqoniy ochib berishga muvaffaq bo‘lgan.

Tahlil va natijalar (Analysis and Methodology). Fuqarolar urushining keng ko‘lamdagi tasviri Chxve Inxunning “Maydon” romanida bo‘rtib ko‘zga tashlanadi. Roman koreys badiiy olamida yangi sahifa ochilishiga sabab bo‘ldi. Mamlakat hayotidagi to‘s-to‘polonlar fonida inson ruhiyati mahorat bilan ochib berilgan. Xalq turmush tarziga ham jismonan, ham ruhiy zarba bergan urush ishtirokchi ko‘zi orqali tasvirlanadi. Frontda tarjimon sifatida faoliyat yuritgan muallif romanda shimol va janub mafkurasiga tanqidiy yondashadi. “Maydon” romani chop etilgandan so‘ng adib adabiyot olamida mashhurlikka erishdi hamda qator adabiy mukofotlar sovrindori bo‘ldi. Romanda aks ettirilgan “mafkuraviy jang” o‘quvchini chuqur tafakkur olamiga g‘arq etadi. Frontda – mamlakatning janub va shimol hududida urush jarayonlarida ishtirok etgan yozuvchi o‘zi guvoh bo‘lgan voqealarni ro‘yi-rost qog‘ozga tushirdi. Bu haqida yozuvchining o‘zi shunday yozadi: “...“Maydon” romaniga keladigan bo‘lsak, men mazkur asarni yaratishda badiiy mahoratimdan ko‘ra ko‘proq hayotiy tajribamga tayandim” [13].

Yozuvchining mazkur romani mamlakat tarixining eng fojiali yillariga bag‘ishlangan. Roman bosh qahramonining 38-parallel chizig‘ining har ikki tarafida izlagan, afsuski, topilmagan erkinlik, ozodlik va tenglik *maydon* so‘zida o‘z ifodasini topadi. Asarda muallif tomonidan qo‘llanilgan “*maxfiy xona*” (“밀실”), “*maydon*” (“광장”), “*moviy maydon*” (“푸른 광장”), “*betaraf mamlakat*” (“중립국”) kabi ramziy ma’no tashuvchi iboralar romanning badiiy-g‘oyaviy mazmunini anglatadi. “Maydon” romani dunyoning qator tillari, ingliz, fransuz, ispan, nemis tillariga tarjima qilindi.

Harbiy mavzuda qalam tebratgan yozuvchi Pak Un Ger qalamiga mansub “Vatan” romanida shimoliy Koreya hududiga ko‘chib o‘tgan ijodkorning qarashlari, nafasi sezilib turadi. Shimoliy Koreya mafkurasi asosida yoritilgan asarda qo‘shni davlatlar, ya’ni, Shimoliy va Janubiy Koreyaning o‘rtasida yuzaga kelgan ziddiyat obyektiv tasvirlanadi. Sobiq Ittifoq koreysshunos olimlari o‘rinli e’tirof etganlaridek: “Yozuvchining diqqat markazida xalq ozodligi uchun har qanday qahramonlikka tayyor turgan inson turadi” [3;111-b.]. Yozuvchi roman sarlavhasiga olib chiqqan *vatan* so‘zi zamirida bir haqiqat yotadi, ya’ni, Koreyaning barcha hududi har bir fuqaro uchun tug‘ilib o‘sgan zamin, bu zaminni tark etish, tashlab ketish mumkin emas. Bu yerga kindik qon to‘kilgan. Mafkuraviy bo‘linish davri fojialarini ko‘rsatish orqali, inson tafakkuridagi nosog‘lom qarashlar tanqid qilinadi.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash joizki, koreys adabiyotida roman janriga asos solinganiga salkam uch asr vaqt o‘tdi. Ilk romanlarda oila va jamiyat masalalari parallel chizildi, o‘zlikni anglash muammosi yuzaga chiqdi. Ikki asrlik tanaffusdan so‘ng yaratilgan romanlarda turli sujet chizig‘iga asolanib, vaziyatni real tasvirlash xos bo‘ldi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Акбарова М.Х. Эволюция жанров. Т., 2009.

(2). Иванова В.И. Новая проза Кореи. М., 1987.

(3). История Кореи (с древнейших времен до наших дней). В 2-томах, М., 1974.

(4). Норматов У. Роман кўзгусида миллат тақдири. XX аср ўзбек адабиёти масалалари. Ўзбекистон Республикаси давлат мукофоти соҳиби, Ўзбекистон Республикаси Фан арбоби, филология фанлари доктори, профессор Н.Ф.Каримов таваллудининг 80 йиллигига бағишланган илмий мақолалар тўплами, Тошкент, “Фан”, 2012.

(5). Петрова О.П. Описание письменных памятников корейской культуры. М., “Наука”, 1963.

(6). Сайдазимова У.Т. XVII–XVIII асрлар корейс насрининг маънавий-эстетик концепциялари. Филол. фанл. д-ри дисс., Тошкент, 2018.

(7). Фитрат А. Адабиёт қоидалари. Адабиёт ҳавасмандлари ҳам муаллимлари учун қўлланма, Тошкент –Самарқанд, 1926, нашрга тайёрловчи Ҳ.Болтабоев Т., “Ўқитувчи”, 1995.

(8). Фитрат А. Танланган асарлар. 4-жилд, Т., “Маънавият”, 2006.

(9). Қўшжонов М. Танланган асарлар. Т., “Шарқ”, 2018.

(10). Chung Chong-wha. Modern Korean Literature. Ananthology 1908–1965, London, 1995.

(11). Small dictionary of Korean literature. Seoul, 2000.

(12). Im Hon-yong, Hwang Sun-won. Who‘s who in Korean literature – Seoul, Hollym, 1996.

(13). Choi In-hoon. The flame in my mind has never died down for the past 48 years. Jeong Yang-hwan Staff Reporter The Dong-a Ilbo. November 20, 2008.

(14). 박완서. 그 많던 싱아는 누가 다 먹었을까. – 서울: (주) 도서출판 세계사, 2012.

(15). 한국문학에서 뽑은 작품. – 서울, 2000.

(16). 김재영. 농토연구. 상허학회, 상허학보. – 제1집. 1993.